

IQTISODIYOT TARMOQLARIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Kaxorova Anora Nusratovna

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot fakulteti
“Fundamental iqtisodiyot” kafedrası 1-kurs doktaranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada makroiqtisodiy muvozanat va iqtisodiy o‘shiga aloqador turli modellar qiyoslamasi turli grafiklar, formulalar va jadvallar asosida o‘rganilgan va ularning taqqoslamalari olib borilgan. Unga qo‘shimcha ravishda modellarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning qaysi davrda va qanday iqtisodiy tizimlar uchun qo‘llanilishi ham atroflicha yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy o‘sh, kapital, mehnat, tovarlar bozori (IS), pul bozori (LM), to‘lov balansi (BP), foiz stavkasi, kapital qaytimi, texnologiyalar, kapital jamg‘arilishi, jamg‘arish darajasi.*

Аннотация: *В данной статье на основе различных графиков, формул и таблиц исследуется сравнение различных моделей, связанных с макроэкономическим балансом и экономическим ростом, и производится их сравнение. Кроме того, подробно освещены конкретные характеристики моделей и их применение, в какой период и для каких экономических систем.*

Ключевые слова: *экономический рост, капитал, труд, товарный рынок (ИС), денежный рынок (ЛМ), платежный баланс (ПБ), процентная ставка, доходность капитала, технологии, накопление капитала, уровень накопления.*

Abstract: *In this article, the comparison of various models related to macroeconomic balance and economic growth is studied on the basis of various graphs, formulas and tables, and their comparisons are made. In addition, the specific characteristics of the models and their application in what period and for what economic systems are covered in detail.*

Key words: *economic growth, capital, labor, goods market (IS), money market (LM), balance of payments (BP), interest rate, return on capital, technologies, capital accumulation, accumulation level.*

KIRISH

Iqtisodiyot tarixidan ma’lumki, natu-ral xo‘jalik boshlangan davrdan toki hozirgi bozor iqtisodiyoti hukmsurayotgan davrgacha har bir iqtisodiy



jarayonga xos iqtisodiy qarashlar o'sha davrning o'zidayoq yaratilib kelingan va ko'p hollar-da ushbu iqtisodiy go'yalar aynan o'sha davr uchun amal qilib, iqtisodiy boshqaruv tarkiban o'zgargan-da, ular ham o'z kuchini yo'qotib, boshqa iqtisodiy go'yalar shakllanishiga yo'l ochib bergan. Xuddi shuningdek, umumiqtisodiy go'yalar bilan birga xu-susiy iqtisodiy go'yalar, masalan, iqtisodiy o'sishga qaratilgan olimlar go'yalari ham turli davrlarda har xil va ular tarkibiga kiradigan omillar ham bir-biri-dan sezilarli farq qiladi.

Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishning turli tadqiqotchilar nazdidagi ta'rifi, iqtisodiy o'sish manbalariga aloqador asosiy savollarga javoblar, iqtisodiy o'sishga aloqador turli xil modellartahlili va ularning komponentlari, shuningdek, mamlakatlar bo'ylab iqtisodiy faoliyatlardagi farqlarning sabab-lari haqida keng va to'la qamrovli ma'lumotlar bilan tanishish imkoni mavjud bo'ladi. Ushbu mavzudagi savollar faqatgina iqtisodiy nazariyalaruchungina muhim bo'lib qolmasdan, balki makroiqtisodiy tahlil va ijtimoiy ilm-fan uchun ham markaziy o'rinlar-da turadi. Ushbu maqolada iqtisodiy hamda umumiy muvozanat modellari hisoblanmish, Harrod-Domar modeli, Robert Solouning iqtisodiy o'sish modeli, IS-LM-BP modeli hamda AD-AS modellarining xususi-yatlari va ularning bir-biridan farqli tomonlari ko'r-satib o'tiladi. Bunga qo'shimcha ravishda zamona-viy iqtisodiy olimlardan D.Acemogluning ham iqtisodiy o'sish go'yalari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy o'sish nazariyasi haqida ko'plab olimlar izlanishlar olib borgan. Lekin ushbu maqolada biz keng qamrovli hamda mashhur iqtisodiy o'sish va muvozanatlik nazariyalari bilan tanishib chiqamiz. Avvalambor, mamlakatimiz olimlari, jumladan, Djumayev fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sish to'liq bandlik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasining uzoq muddatli ko'payishi tenden-siyasini anglatadi. Ushbu olim fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sish yalpi taklifning o'sishini yoki boshqacha qilib aytganda, haqiqiy va potensial YaIM hajmining o'sishini bildiradi [1].

Harrod-Domar o'sish modeliga to'xtalib o'tsak. Ushbu model britaniyalik iqtisodchi Roy Harrod va amerikalik iqtisodchi Evsey Domer mustaqil tadqiqotlarining natijasida kelib chiqqan. Ushbu modelga ko'ra, iqtisodiy o'sish uch omilga bog'liq: kapital (K), labor (L), resources (R). $Y = F(K, L, R)$ Bunda R va L kapital ishlab chiqarishda o'sishga olib kelgan omillar deb qaraladi [2]. Endi fikrimizni Robert Solou va Trevor Sven iqtisodchi olimlar nomiga atalgan, Solow-Swan modeliga yoki ko'pgina adabiyotlarda Solou modeli deb ataladigan modelga qaratamiz. Ushbu olimlar 1956-yilda



olamshumul maqolalarini chop etish bilan Solou modelini tanishtirishdi[3].

Bob Solou keyinchalik ushbu modelning kelajakdagi istiqbollarini va uni qo'llash usullarini rivojlantirdi va iqtisodiyotga qo'shgan ushbu hissasi uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Ushbu model bizning faqatgina iqtisodiy o'sishga bo'lgan qarashimizni emas, balki maqroiqtisodiyotning barcha sohalariga bo'lgan yondashuvimizni ham o'zgartirdi. Boshqa bir amerikalik iqtisodchilar: Garvard universiteti professori Robert.J.Barro va Kolumbiya universiteti iqtisodiyot fanlari bo'yicha professor XavierSala-i-Martin o'zlarining "Iqtisodiy o'sish" deb atalgan asarlarida iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil deb uch turli omilni sanab o'tishdi. Ular kapital $K(t)$, labor $L(t)$ va intellekt $T(t)$ [4]. Bunda ishlab chiqarish funksiyasi quyidagichadir: $Y(t) = F[K(t), L(t), T(t)]$ Bu yerda $Y(t)$ biror davr mobaynida ishlab chiqarish miqdorini bildiradi. Ushbu iqtisodiy modelning Harrod-Domar modelidan farqi so'nggi omildadir. Unga ko'ra, jamiyatda texnika va bilimsiz resurslardan foydalanib bo'lmasligi va resurslarni kuchga keltiradigan aynan intellekt va texnologiyalar deb aytib o'tilgan. Boshqa bir iqtisodchi olim Artur Levis o'z modelida ishchi kuchi zaxirasi iqtisodiy o'sishning asosi deb ta'kidlagan. Uning fikricha, bu model "aholi zichligi yuqori, kapital taqchil, tabiiy resurslar esa cheklangan" [5] davlatlar uchun qo'l keladi. Bunday mamlakatlarga Hindiston, Pokiston va Misr-ga o'xshash davlatlar kiradi. Professor Acemogluining rivojlanish iqtisodiyotiga qo'shgan asosiy hissasi uning siyosiy institutlarning rivojlanishdagi ustuvorligi haqidagi ishi bo'ldi, bu nazariya "Nima uchun xalqlar tanazzulga uchraydi" kitobida e'lon qilingan. Bunda u institutning ikkita asosiy turi borligini ta'kidlaydi: ekstraktiv va inklyuziv. Ekstraktiv muassasalar kichik yoki yakka shaxsga (masalan, feodal tizim paytida zodagonlarga) xizmat qilish uchun yaratilgan. Ammo inklyuziv muassasalar ko'pchilik tomonidan boshqariladi va shuning uchun aholining umumiy turmush farovonligini yaxshilashni niyat qiladi [6]. Ramsey modeli iqtisodiy o'sishning neoklassik modelidir. U aholining eksponensial o'sishi bilan yopiq iqtisodiyotda kapital va iste'molning vaqt evolyutsiyasini tavsiflaydi. Ushbu ishda aholining umumiy vaqt evolyutsiyasi uchun Ramsey modeli shakllantirilgan. Shuningdek, iqtisodiyotda Ramsey-ning qoidasi "teskari elastiklik qoidasi"dir. Unda mahsulotlarga yuklanadigan soliq hajmi mahsulotga bo'lgan talab elastikligiga qarama-qarshi bo'lishi kerak [7]. Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimli yondashuv, statistika, taqqoslash, ilmiy abstraksiya hamda mavjud bo'lgan iqtisodiy o'sishga aloqador mahalliy va



xorijiy adabiyotlar va maqolalarni o‘r-gangan holda iqtisodiy o‘shish nazariyalari qiyoslan-gan va ular grafik-chizmalar yordamida tasvirlangan

Metodologiya.

Maqolada tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy va ilmiy abstraktsiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.

Natijalar va tahlil.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yilning birinchi yarmida kichik bo‘lsada iqtisodiy o‘shish sur‘atlari saqlanib qolindi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 255,3 trillion so‘mni tashkil etib, o‘shish ko‘rsatkichi 0,2 %ni tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu ko‘rsatkich 6 %ni tashkil etgandi. Sohalarda yalpi qo‘shilgan qiymat o‘shishi 0,3 % ni tashkil etdi. OTBning «Osiyo taraqqiyoti istiqbollari» (ADO) yillik iqtisodiy nashrining

1-rasm.



Manba: Stat.uz., 2023-yil 1-chorak

Ta'kidlash joizki, 2022 yilning aprel oyida e'lon qilingan nashrida O‘zbekistonda 2021 va 2022 yillarda iqtisodiy o‘shish darajasi mos ravishda 4 foiz va 5 foiz bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Unda qayd etilishicha, sanoatning ishlab chiqarish, tog‘-kon sanoati va foydali qazilmalar qazib olish sohasidagi o‘shish hisobiga jadal qayta tiklanganligi munosabati bilan mamlakatda 2021 yil birinchi yarmida 6,2 foizlik iqtisodiy o‘shishga erishilgan. Savdo, transport va saqlash xizmatlari sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar tufayli iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o‘shishi 8 foizgacha tezlashgan.

1-jadval

2023- yilning yanvar iyul oylarida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy o‘shish xolati.

Tarmoqlar	2022 yilga nisbatan o‘shish sur‘ati foizda va sonida
Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi	105,7 %
Qurilish ishlari hajmining o‘shish sur‘ati	104,8 %
Chakana savdo tovar aylanmasi o‘shish sur‘ati	107,1 %
Bozor xizmatlari hajmining o‘shish sur‘ati	112,4 %
Tashqi savdo aylanmasi o‘shish sur‘ati	123,3 %
Eksportning o‘shish sur‘ati	131 %
Importning o‘shish sur‘ati	131 %
Importning o‘shish sur‘ati	118,1 %
Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni	476 701 ta
Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari	409 988 ta

Manba: O‘zbekiston Respublikasi prezidenti xuzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki 2023 yilning yanvar iyul oylarida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy o‘shish xolati o‘tgan 2022 yilning shu davrga nisbatan oshgan. 2023 yilda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 311 trln so‘m, xarajatlari 343 trln so‘m miqdorida rejalashtirilgan holda, 32 trln 528 mlrd so‘m yoki YAIMga nisbatan 3 foiz miqdoridagi taqchillik bilan shakllantirilgan. 2023 yilgi davlat budjeti xarajatlari 257 trln 728 milliard so‘m bo‘lishi ko‘zda tutilmoqda. Xarajatlarning 50 foizi yoki 130 trln so‘m ijtimoiy sohaga yo‘naltirildi.


Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot



tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

2-rasm

2001–2022-yillarda buyun dunyoda ilmiy-tadqiqot va rivojlanishga xarajatlar va YaIM ning o‘shishi



Manba: The Global Innovation Index 2021

Yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot ishlariga xarajatlar YaIMning 3 foizga yaqinini tashkil qiladilar. Moliyalashtirish tizimi orqali innovatsion faoliyatni rivojlantirish mumkin. Innovatsion faoliyatda korxonalar, sanoat kompaniyalari, moliya sanoat guruhlar, kichik innovatsion biznes, investitsion va innovatsion fondlar, mahalliy boshqaruv jarayonlarida ishtirok etadilar.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish, rivojlanishi, mavjud muammo va to‘siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institutsional tizimni joriy etishni talab etadi. Jumladan:

-makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘shish maqsadlari va tarkibiy islohotlar o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlash;

-tashqi va ichki omillar ta‘sirida yuzaga keladigan iqtisodiy sikllarni boshqarishning zamonaviy prognozlashtirish modellariga asoslangan samarali tizimi va mexanizmlarini joriy etish;

-kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha yaxlit tizim va muvofiqlashtiruvchi davlat organi, me‘yoriy-huquqiy baza, mezonlar va baholash uslubiyotining mavjud emasligi,



-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb qilish vazifalarining aniq ajratib olinmaganligi sababli tegishli aholi guruhlari bilan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi past darajada ekanligi;

-hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha aniq yondashuv va tamoyillar to‘liq shakllantirilmaganligi;

-iqtisodiyotning hududiy va tarmoq rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ta‘minlanmasdan hamda hududlarni rivojlantirishdagi mavjud salohiyat va «nisbiy ustunlik» mezonlaridan oqilona foydalanish;

-ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda inson kapitali va demografik omillar inobatga olish;

-mamlakatda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning aniq yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikni moliyaviy va nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tizimlashtirish;

-dasturlar hisobidan ajratilayotgan mablag‘larning sarflanish samaradorligini baholashdagi kamchiliklarni bartaraf etish;

-mamlakat sanoatini rivojlantirishning fundamental drayverlari hisoblangan sohalarda mehnat unumdorligini oshirish;

-sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish bo‘yicha aniq mexanizm va dastaklarga asoslangan yagona industrial siyosat va strategiya ishlab chiqish;

-zamon talablaridan kelib chiqib yangilash va samarali foydalanish masalalariga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish, barqaror iqtisodiy o‘sish borasida maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimini joriy etish zamon talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 1. Ўзбекистон Республикаси президентининг “ 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги 2022 йил 28 январь, ПФ-60-сон Фармони.

2. 2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Тошкен 2021 – 280 Б

3. Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. “Innovatsion rivojlanish” nashriyot-matbaa uyi, 2018. –164 bet. /

4. Djumayev Z.A. Makroeconomics. Instructional manual: “Innovative Development Publishing House”, 2018. –164 page.2.



5. Le Ngoc Thong, Nguyen Thi Hao. International Journal of Humanities Social Sciences and Education, Volume-6, Issue-4, April 2019. P 11-12.3. Daron Acemoglu. Introduction to Modern Economic Growth. 2007. P. 50-54.4.
6. Robert J. Barro, Xavier Sala-i-Martin. “Economic Growth” Second edition. P. 23-30.5.
7. Lewis, William Arthur. The Theory of Economic Growth. –London, 2003. P. 1-29.6.
8. Daron Acemoglu, James A. Robinson. Why Nations Fail. –New York, 2012. P. 93-96.
9. Viktoria Kajanovichova, Branislav Novotny, Michal Posposil. Ramsey model with non-constant population growth. // The journal of Mathematical Social Sciences. V-4/2020. P. 40-46.8. Mark Wallace. chiqildi

